O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor v.v.b
_____A.Berdibaev
“_28_”-oktyabr_____ 2026 jil

13.00.02 – TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (TARIX) IXTISOSLIGI BO‘YICHA IMTIHON

DASTURI

Falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga talabgorlar uchun

NUKUS-2026

Dastur Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O‘quv-metodik Kengashida ko‘rib chiqilgan va maqullangan (“___” _____ 2026-yil, _____- sonli boyonnoma).

Tuzuvchi:
Nukus davlat pedagogika instituti
“Tarix” kafedrasi professori.v.b., t.f.d. (DSc) B. Turganov.

Taqriz beruvchilar :

Nukus davlat pedagogika instituti
“Umumiy pedagogika” kafedrasi mudiri, p.f.d., prof.: T. Utebaev

Qoraqalpoq davlat universiteti
“O`zbekiston tarixi” kafedrasi
professori, t.f.d (DSc).: S. Sulaymanov

Dastur “Tarix” kafedrasi majlisida ko‘rib chiqilgan va maqullangan (“_____” _____ 2026-yil, _____- sonli boyonnoma).

“Tarix” kafedrasi mudiri v.v.b., t.f.f.d (PhD):_____ A. Ermanov

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, mamlakatimizda ta’lim jarayonini rivojlantirish maqsadida belgilangan konseptual g‘oyalar mazkur tadqiqot uchun ilmiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda pedagogika fani pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda yangicha tafakkurni, tarixiy xotirani, tarkib toptirish, umumiy kasb tayyorgarligikni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Tarix o‘qitish metodikasi nazariyasi pedagogik ma’lumotga ega har bir talabgor, qaysi fan mutaxassisi bo‘lib yetishishidan qat’iy nazar o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik bilimlar va ko‘nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talablarini bilishlari lozim.

Tarix o‘qitish metodikasi nazariyasi talabgorning umumpedagogik bilim darajasini, tarix merosimizga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini aniqlaydi. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta’lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qiladi.

Bunda maorif va pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob berganligi, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya nazariyasi va amaliyot ekani hisobga olingan. Ta’lim amaliyoti, shuningdek, ta’limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiyalar, ta’limotlarni tavsiflaganda shu ta’limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni asos qilib olish nazarda tutilgan.

Dasturning annotatsiyasi

Mazkur dastur 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix) ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga talabgorlarning ixtisoslik fanidan malakaviy imtihonga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun ishlab chiqilgan.

Dastur tarix ta’limi nazariyasi va metodikasining shakllanishi va rivojlanishi, uning metodologik asoslari, tarix fanini o‘qitishning umumiy va xususiy metodikasi, tarixiy bilimlarni shakllantirish qonuniyatlari, tarixiy tafakkur va kompetensiyalarni rivojlantirish, ta’lim jarayonini loyihalash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, tarix ta’limida manbalar va raqamli vositalardan foydalanish, ta’lim natijalarini baholash hamda pedagogik tadqiqot metodologiyasi masalalarini qamrab oladi.

Dastur mazmuni talabgorlarning nazariy bilimlarini, metodik kompetensiyalarini, ilmiy tahlil qilish va mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Dasturning maqsadi. 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix) ixtisosligi bo‘yicha talabgorlarning tarix ta’limi nazariyasi va metodikasiga oid fundamental bilimlarini, zamonaviy pedagogik va metodik yondashuvlarni o‘zlashtirganlik darajasini, tarix ta’limi jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hamda mustaqil ilmiy tadqiqot olib borish qobiliyatini aniqlash.

1.2. Dasturning vazifalari

- Tarix ta’limi metodikasining nazariy va metodologik asoslarini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash.
- Tarix ta’limi metodikasining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalarini bilishini baholash.
- Tarix fanini o‘qitishning umumiy va xususiy metodikasi bo‘yicha bilimlarini aniqlash.
- Tarixiy bilimlarni shakllantirish, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va tarixiy manbalar bilan ishlash metodikasini baholash.

- Tarix ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish kompetensiyalarini aniqlash.
- Tarix ta’limi natijalarini baholashning nazariy va metodik asoslarini bilishini tekshirish.
- Pedagogik tadqiqot metodologiyasi, ilmiy tadqiqot metodlari va tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bo‘yicha bilimlarini aniqlash.
- Ilmiy muammoni aniqlash, tadqiqot gipotezasini shakllantirish, ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatni asoslash qobiliyatini baholash.
- Tarix ta’limi metodikasi sohasidagi zamonaviy ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba va ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish ko‘nikmalarini aniqlash.

1.3. Talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar

Malakaviy imtihon natijasida talabgor:

Bilishi kerak:

- tarix ta’limi metodikasining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalarini;
- tarix ta’limining nazariy va metodologik asoslarini;
- tarix ta’limi mazmunini shakllantirish tamoyillarini;
- tarix fanini o‘qitishning umumiy va xususiy metodikasini;
- tarixiy bilimlar, tarixiy tafakkur va tarixiy kompetensiyalarni shakllantirish qonuniyatlarini;
- tarix ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash xususiyatlarini;
- pedagogik tadqiqot metodologiyasi va ilmiy tadqiqot metodlarini;
- tarix ta’limi sohasidagi zamonaviy ilmiy muammolar va tadqiqot yo‘nalishlarini.

Bajara olishi kerak:

- tarix ta’limiga oid ilmiy muammolarni aniqlash va tahlil qilish;
- tarix darslari va o‘quv mashg‘ulotlarini metodik jihatdan loyihalash;
- tarixiy manbalar, xaritalar va boshqa ko‘rgazmali vositalar bilan ishlash metodikasini ishlab chiqish;

- pedagogik tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va tashkil etish;
- ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish;
- ilmiy yangilik va amaliy natijalarni asoslash;
- tarix ta’limi metodikasi bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

II. IXTISOSLIK PASPORTI VA UNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

2.1. Tarix ta’limi metodikasining ilmiy maqomi

Tarix ta’limi metodikasi pedagogika fanlarining tarkibiy qismi bo‘lib, tarix fanini o‘qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari va natijalarini o‘rganuvchi ilmiy-pedagogik yo‘nalish hisoblanadi.

Tarix ta’limi metodikasi tarixiy bilimlarni o‘zlashtirish, tarixiy tafakkurni rivojlantirish, tarixiy manbalar bilan ishlash, tarixiy voqea va hodisalarni tahlil qilish hamda tarixiy jarayonlarni ilmiy asosda anglashning pedagogik qonuniyatlarini tadqiq etadi.

2.2. Tarix ta’limi metodikasining obyekti va predmeti

Tadqiqot obyekti: tarix fanini o‘qitish va tarixiy bilimlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq ta’lim-tarbiya jarayoni.

Tadqiqot predmeti: tarix ta’limining mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari, pedagogik shart-sharoitlari, tarixiy tafakkur va kompetensiyalarni shakllantirish qonuniyatlari hamda ta’lim natijalarini baholash mexanizmlari.

2.3. Tarix ta’limi metodikasining asosiy ilmiy yo‘nalishlari

1. Tarix ta’limi nazariyasi va metodologiyasi.
2. Tarix ta’limi mazmunini shakllantirish va takomillashtirish.
3. Tarix fanini o‘qitishning umumiy va xususiy metodikasi.
4. Tarixiy tafakkur va tarixiy kompetensiyalarni shakllantirish.
5. Tarix ta’limida tarixiy manbalar bilan ishlash metodikasi.
6. Tarix ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.
7. Tarix ta’limida raqamli texnologiyalar va elektron ta’lim resurslari.

8. Tarix ta’limida baholash va monitoring.

9. Tarix ta’limida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.

10. Tarix ta’limi metodikasi bo‘yicha pedagogik tadqiqotlar.

2.4. Tarix ta’limi metodikasining metodologik tamoyillari

- ilmiylik;
- tarixiylik;
- xolislik;
- tizimlilik va izchillik;
- nazariya va amaliyot birligi;
- ta’lim va tarbiyaning uzviyligi;
- shaxsga yo‘naltirilganlik;
- kompetensiyaviy yondashuv;
- uzluksizlik va uzviylik;
- ta’lim natijalarining o‘lchanishi va baholanishi.

III. MALAKAVIY IMTIHON DASTURINING ASOSIY MAZMUNI

1-bo‘lim. Tarix ta’limi metodikasining nazariy asoslari

1. Tarix ta’limi metodikasining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari.

2. Tarix ta’limi metodikasining pedagogika fanlari tizimidagi o‘rni.

3. Tarix ta’limi metodikasining tarixshunoslik, psixologiya, falsafa va boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

4. Tarix ta’limi metodikasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.

5. Tarix ta’limi metodikasining ilmiy-nazariy asoslari.

6. Tarix ta’limi metodikasining asosiy kategoriyalari.

7. Tarix ta’limining maqsad va vazifalarini belgilash tamoyillari.

8. Tarix ta’limi mazmunini shakllantirishning nazariy asoslari.

9. Tarix ta’limida tarixiylik, ilmiylik va xolislik tamoyillari.

10. Tarix ta’limining uzluksizligi va uzviyligi.

11. Tarix ta’limida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi.

12. Tarix ta’limining zamonaviy paradigmalari.

13. Tarix ta’limida shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar.

14. Tarix ta’limi metodikasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari.

15. Tarix ta’limi metodikasi bo‘yicha xorijiy tajribaning nazariy va amaliy ahamiyati.

2-bo‘lim. Tarix ta’limi mazmuni va uni tashkil etish metodikasi

1. Tarix ta’limi mazmunining tarkibiy qismlari.
2. Tarixiy bilimlarning turlari va ularni o‘zlashtirish qonuniyatlari.
3. Tarix ta’limi mazmunini tanlash mezonlari.
4. Tarix ta’limi mazmunini tizimlashtirish va davrlashtirish.
5. Tarixiy tushuncha va atamalarni shakllantirish metodikasi.
6. Tarixiy voqea, hodisa va jarayonlarni o‘rganish metodikasi.
7. Tarixiy jarayonlarni sabab-oqibat munosabatlari asosida tahlil qilish.
8. Tarixiy jarayonlarni xronologik izchillikda o‘rganish.
9. Tarixiy jarayonlarni hududiy va makoniy jihatdan o‘rganish.
10. Tarixiy shaxslar faoliyatini o‘rganish metodikasi.
11. Tarixiy jarayonlarni qiyosiy tahlil qilish metodikasi.
12. Tarixiy bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish.
13. Tarix darslarini rejalashtirish va tashkil etish.
14. Tarix darsining tuzilishi, turlari va metodik xususiyatlari.
15. Tarix darsining texnologik xaritasini ishlab chiqish.
16. Tarix ta’limida mustaqil ta’limni tashkil etish.
17. Tarix ta’limida sinfdan tashqari mashg‘ulotlar metodikasi.
18. Tarix ta’limida ekskursiya va muzey pedagogikasidan foydalanish.
19. Tarix ta’limida mahalliy tarix materiallaridan foydalanish.
20. Tarix ta’limida fanlararo integratsiyani amalga oshirish.

3-bo‘lim. Tarix ta’limining xususiy metodikasi

1. Tarix ta’limining xususiy metodikasi tushunchasi, predmeti va vazifalari.
2. Tarix ta’limining xususiy metodikasini ishlab chiqishning nazariy asoslari.
3. Tarix ta’limi mazmunining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.
4. Qadimgi dunyo tarixini o‘qitish metodikasi.

5. O‘rta asrlar tarixini o‘qitish metodikasi.

6. Yangi davr tarixini o‘qitish metodikasi.

7. Eng yangi tarixni o‘qitish metodikasi.

8. O‘zbekiston tarixini o‘qitishning metodik xususiyatlari.

9. Jahon tarixini o‘qitishning metodik xususiyatlari.

10. Tarix ta’limida tarixiy davrlashtirishni o‘rgatish metodikasi.

11. Tarixiy voqea va hodisalarni o‘rganishda muammoli yondashuv.

12. Tarixiy shaxslar faoliyatini tarixiy sharoit va davr bilan bog‘liq holda o‘rganish.

13. Tarixiy jarayonlarni qiyosiy o‘rganish metodikasi.

14. Tarixiy manbalar asosida tarixiy bilimlarni shakllantirish.

15. Tarix ta’limida tarixiy xaritalardan foydalanish.

16. Tarix ta’limida arxeologik, numizmatik va epigrafik manbalardan foydalanish.

17. Tarixiy tasvirlar, fotosuratlar va moddiy madaniyat yodgorliklarini o‘rganish metodikasi.

18. Tarix ta’limida tarixiy rekonstruksiya va modellashtirish.

19. Tarixiy mazmundagi muammoli topshiriqlarni ishlab chiqish.

20. Tarix ta’limida tarixiy tafakkur va tarixiy kompetensiyalarni rivojlantirish.

4-bo‘lim. Tarix ta’limida pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning tarix ta’limidagi o‘rni.

2. Tarix ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash tamoyillari.

3. Kompetensiyaviy yondashuvning tarix ta’limidagi ahamiyati.

4. Muammoli ta’lim texnologiyasi.

5. Loyihaviy ta’lim texnologiyasi.

6. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi.

7. Interfaol ta’lim metodlari va ularning tarix ta’limidagi imkoniyatlari.

8. Keys-stadi metodidan foydalanish.

9. Munozara va debat metodlaridan foydalanish.

10. Tarix ta’limida tadqiqotga asoslangan ta’lim.

11. Tarixiy rekonstruksiya va modellashtirish texnologiyalari.

12. Tarix ta’limida differensial va individual yondashuv.

13. Tarix ta’limida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish.

14. Elektron ta’lim platformalari va masofaviy ta’lim.

15. Tarix ta’limida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish.

16. Virtual muzeylar, 3D modellar va raqamli xaritalar.

17. Tarix ta’limida innovatsion texnologiyalarning samaradorligini baholash.

5-bo‘lim. Tarix ta’limida tarixiy manbalar bilan ishlash metodikasi

1. Tarixiy manba tushunchasi va uning turlari.

2. Tarixiy manbalarning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati.

3. Yozma tarixiy manbalarni o‘rganish metodikasi.

4. Arxeologik manbalardan foydalanish metodikasi.

5. Numizmatik va epigrafik manbalarni o‘rganish.

6. Tarixiy hujjatlar bilan ishlash metodikasi.

7. Tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish.

8. Tarixiy manbalarning ishonchliligini aniqlash.

9. Tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish.

10. Tarixiy xaritalar bilan ishlash metodikasi.

11. Tarixiy tasvirlar va vizual manbalardan foydalanish.

12. Tarixiy manbalar asosida mustaqil xulosa chiqarish.

13. Tarixiy manbalarda aks etgan turli talqinlarni tahlil qilish.

14. Tarix ta’limida muzey eksponatlaridan foydalanish.

15. Tarixiy manbalar asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish.

6-bo‘lim. Tarixiy tafakkur va kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi

1. Tarixiy tafakkur tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.

2. Tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish.

3. Tarixiy kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.

4. Tarixiy xronologik kompetensiyani shakllantirish.

5. Tarixiy makon va geografik tasavvurlarni rivojlantirish.

6. Tarixiy sabab-oqibat munosabatларини аниқлаш компетенцияси.

7. Тарихий манбаларни таҳлил қилиш компетенцияси.

8. Тарихий далиллар асосида хулоса чиқариш.

9. Тарихий жараёнларни қиёсий таҳлил қилиш.

10. Тарихий эмпатия ва тарихий нуқтаи назарни англаш.

11. Тарих таълимида танқидий фикрлашни ривожлантириш.

12. Тарихий муаммоларни мустақил ҳал этиш компетенцияси.

13. Тарих таълимида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш.

14. Тарихий билимларни замонавий ижтимоий жараёнлар билан боғлаш.

15. Тарихий тафаккурни баҳолаш мезонлари.

7-bo‘lim. Tarix ta’limida tarbiyaviy faoliyat

1. Tarix ta’limining tarbiyaviy imkoniyatlari.

2. Tarix ta’limida ma’naviy-axloqiy tarbiya.

3. Tarix ta’limida vatanparvarlik va fuqarolik tarbiyasi.

4. Tarixiy xotira va tarixiy merosga hurmatni shakllantirish.

5. Tarix ta’limida milliy o‘zlikni anglash.

6. Tarix ta’limida milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

7. Tarix ta’limida bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqot.

8. Tarixiy shaxslar faoliyatini o‘rganish orqali tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish.

9. Tarix ta’limida demokratik qadriyatlarni shakllantirish.

10. Tarixiy voqealarni o‘rganishda ilmiy xolislik.

11. Tarixiy meros obyektlari orqali tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.

12. Tarix ta’limida tarixiy xotira va ijtimoiy mas’uliyat.

8-bo‘lim. Tarix ta’limida baholash va monitoring

1. Ta’lim natijalarini baholashning nazariy asoslari.

2. Tarix ta’limida nazorat va baholashning maqsadi hamda vazifalari.

3. Tarixiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni baholash mezonlari.

4. Diagnostik, formativ va summativ baholash.

5. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat.

6. Tarix fanidan test topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasi.

7. Tarixiy tafakkur va manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini baholash.

8. Baholash mezonlari, rubrikalar va deskriptorlar.

9. O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash.

10. Portfolio metodidan foydalanish.

11. Tarix ta’limida monitoring va ta’lim sifatini tahlil qilish.

12. Baholashning ishonchliligi, validligi va xolisligi.

13. Tarix ta’limida xalqaro baholash yondashuvlari.

14. Ta’lim natijalarini statistik tahlil qilish.

15. Baholash natijalaridan metodik faoliyatni takomillashtirishda foydalanish.

9-bo‘lim. Tarix ta’limi metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot metodologiyasi

1. Pedagogik tadqiqot metodologiyasining mohiyati va vazifalari.

2. Ilmiy bilish metodologiyasi va uning pedagogik tadqiqotlardagi o‘rni.

3. Tarix ta’limi metodikasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning obyekti va predmeti.

4. Ilmiy muammoni aniqlash va tadqiqot mavzusini shakllantirish.

5. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmetini belgilash.

6. Ilmiy tadqiqot gipotezasini ishlab chiqish.

7. Ilmiy tadqiqotning nazariy va empirik metodlari.

8. Pedagogik kuzatish metodining mohiyati va qo‘llanilishi.

9. Suhbat, so‘rovnoma va test metodlari.

10. Pedagogik eksperimentning mohiyati, turlari va bosqichlari.

11. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi.

12. Tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish.

13. Pedagogik tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish.

14. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligini ta’minlash.

15. Tarix ta’limi metodikasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish.

16. Qiyosiy pedagogik tadqiqot metodlari.

17. Ilmiy tadqiqotlarda tizimli, tarixiy va mantiqiy tahlil.

18. Ilmiy tadqiqot natijalarini umumlashtirish va xulosalar chiqarish.

19. Ilmiy yangilik, nazariy va amaliy ahamiyatni asoslash.

20. Ilmiy natijalarni ta’lim amaliyotiga joriy etish.

21. Ilmiy maqola, dissertatsiya va monografiya tayyorlash metodikasi.

22. Ilmiy tadqiqotlarda akademik halollik va tadqiqot etikasi.

23. Tarix ta’limi metodikasi bo‘yicha xalqaro ilmiy tajribani o‘rganish.

24. Tarix ta’limi metodikasining istiqbolli ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari.

IV. PhD VA DSc TALABGORLARINING ILMIY-METODIK TAYYORGARLIGIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

4.1. PhD talabgorlari uchun

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgor:

- tarix ta’limi metodikasining nazariy va metodologik asoslarini bilishi;
- tarix ta’limi bo‘yicha mavjud ilmiy muammolarni tahlil qila olishi;
- tadqiqot mavzusiga muvofiq ilmiy adabiyotlarni o‘rganishi;
- ilmiy tadqiqot metodlarini to‘g‘ri tanlashi;
- pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish tamoyillarini bilishi;
- ilmiy natijalarni tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarishi;
- tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini asoslay olishi lozim.

4.2. DSc talabgorlari uchun

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgor:

- tarix ta’limi metodikasining fundamental nazariy va metodologik muammolarini chuqur bilishi;
- tarix ta’limi metodikasining rivojlanish qonuniyatlarini tizimli tahlil qila olishi;
- tarix ta’limi sohasidagi ilmiy konsepsiyalarni qiyosiy va tanqidiy baholashi;
- ilmiy muammolarni hal etishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishi;
- pedagogik tadqiqotlarning murakkab metodologik masalalarini hal qila olishi;

- ilmiy natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatini asoslay olishi;
- tarix ta’limi metodikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy konsepsiya, metodik tizim yoki ilmiy asoslangan model ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Izoh: PhD va DSc uchun yuqoridagi talablar ilmiy tayyorgarlik darajasini farqlashga xizmat qiladi. Imtihonning yakuniy tartibi va baholash mexanizmi vakolatli tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

V. 13.00.02 – TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (TARIX) IXTISOSLIGI BO‘YICHA KIRISH IMTIHONI SAVOLLARI

Quyidagi savollar imtihon savollari banki sifatida tavsiya etiladi.

1. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ta’lim-tarbiya va ilm-fanning ustuvor yo‘nalishlari (2020-yil 23-sentabr).
2. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konsitutsiyasida ta’lim-tarbiyaning qonuniy asoslari (2020-yil 23-sentabr).
3. O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limi tizimini isloh qilish sohasidagi davlat siyosatining mazmun mohiyati va yo‘nalishlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonining mohiyati.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonida uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishga oid ustuvor vazifalar.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarorining mohiyati.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmonining mazmun mohiyati.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–4958-son Farmonining mazmun mohiyati.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020 yildagi yangi tahriri) mazmun, mohiyati, tarkibiy tuzilishi.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun mohiyati
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy

rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi Qarori mazmun mohiyati.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-232-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining mazmun mohiyati.
13. Hozirgi sharoitda pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolar.
14. Kasbiy kompetensiyaning turlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
15. Pedagogik jarayonlarni modellashtirish. Modellashtirishning turlari.
16. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasi va uning rivojlanish imkoniyatlari.
17. O‘qituvchi mehnatini rag‘batlantirish sohasidagi davlat siyosati va pedagoglarga qo‘yiladigan talablar.
18. Amir Temurning Movaraunnahr ilm-fan taraqqiyotida tutgan o‘rni.
19. Pedagogika sohasidagi innovatsion yondashuvlar.
20. Zamonaviy darsliklarning tarkibiy tuzilishi va unga qo‘yiladigan talablar.
21. Ta’limda innovatsion metodlar. Ularning pedagogik ahamiyati.
22. O‘zbekistonda o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar.
23. Ta’lim jarayonida pedagogik kuzatish va suhbat metodlaridan foydalanish imkoniyatlari.
24. O‘qituvchilik kasbining O‘zbekiston jamiyatida tutgan o‘rni va unga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar.
25. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.
26. Shaxs ta’lim-tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati.
27. Sharq allomalarining ustoz-shogird munosabatlari haqidagi ta’limotlari.
28. Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan yaratilgan darsliklar va ularning o‘ziga xos jihatlari.
29. STEAM texnologiyasining pedagog mutaxasislarni tayyorlashdagi ahamiyati.
30. Loyiha ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va pedagogik imkoniyatlari.
31. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash metodlari va texnologiyalari.
32. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’limning tarkibiy qismlari.
33. Sinfdan tashqari ishlarning shakllari va metodlari
34. Amir Temur o‘gitlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati
35. O‘qitish jarayonida ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlanuvchi vazifalarning birligi
36. “Avesto”da ta’lim-tarbiya masalalari.
37. Ta’lim metodlari va vositalari, haqida tushuncha, hamda ularning tasnifi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni baholashda reyting tizimi.
38. Pedagogik faoliyatda muammoli vaziyatlar
39. O‘qituvchining ma’naviy dunyosi va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabati.
40. Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash muammolari.
41. Pedagogik texnologiyaning nazariy metodologik asoslari.
42. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari.

43. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari
44. Muammoli o‘qitish texnologiyasi
45. Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyalari
46. Kompyuterli o‘qitish texnologiyalari
47. Ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasi
48. Modulli o‘qitish texnologiyasi.
49. Modulli o‘qitishning mohiyati, tamoyillari va yondoshuv turlari
50. Masofaviy o‘qitish.
51. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi va tamoyillari
52. O‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyalarida integratsion jarayonlar.
53. O‘quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi
54. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish tizimi.
55. Pedagogik mahorat va kompetensiya mezonlari
56. Oliy ta’lim o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy aspektlari.
57. Oliy ta’lim o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy aspektlari.
58. Oliy ta’lim o‘qituvchisi malakasiga ega bo‘lish uchun qo‘yiladigan talablar.
59. Ta’lim mazmunini belgilashga doir konsepciyalar
60. Ta’lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlari
61. Interfaol ta’lim vositasida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish
62. Uzliksiz ta’lim tizimida barkamol shaxsni shakllantirishning konseptual asoslari
63. “Tarbiya” fanini o‘qitishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish
64. Tarix ta’limining metodologik asoslari va tamoyillari
65. Tarix ta’limi mazmunini shakllantirishning nazariy asoslari
66. Tarix ta’limida kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati va ahamiyati
67. Tarixiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari
68. Tarix ta’limida tarixiy xotira va tarixiy ongni shakllantirish metodikasi
69. Tarix darsining tuzilishi va uni tashkil etish metodikasini tahlil qiling.
70. Tarix ta’limida tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi
71. Tarixiy voqea va hodisalarni sabab-oqibat munosabatlari asosida o‘rganish metodikasi
72. Tarix ta’limida tarixiy davrlashtirish va xronologik izchillikni shakllantirish metodikasi
73. Tarixiy shaxslar faoliyatini o‘rganish metodikasi
74. Tarix ta’limida tarixiy manbalar bilan ishlash metodikasi
75. Tarix ta’limida arxeologik, numizmatik va epigrafik manbalardan foydalanish imkoniyatlari
76. Tarixiy xaritalar bilan ishlash metodikasi
77. Tarix ta’limida tarixiy rekonstruksiya va modellashtirish metodlarining ahamiyati
78. Tarix ta’limida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi

79. Tarix ta’limida loyihaviy va tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalari
80. Tarix ta’limida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanishning didaktik imkoniyatlari
81. Tarix ta’limida muzey pedagogikasi va tarixiy ekskursiyalarning o‘rni
82. Tarix ta’limida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish metodikasi
83. Tarix ta’limida tarixiy xolislik va turli tarixiy talqinlarga munosabat masalalari
84. Tarix fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash mezonlarini ishlab chiqish metodikasi
85. Tarix ta’limi metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash va asoslash metodikasi
86. Pedagogik tadqiqotning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalarini belgilash tamoyillari
87. Ilmiy tadqiqot gipotezasini ishlab chiqishning metodologik asoslari
88. Pedagogik eksperimentni tashkil etish bosqichlari
89. Tajriba-sinov ishlarida nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirish metodikasi
90. Pedagogik tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilishning ahamiyati
91. Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligini ta’minlash yo‘llari
92. Tarix ta’limi metodikasining zamonaviy muammolari va istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlari
93. Tarixiy tadqiqotlarda fanlararo va antropologik yondashuvlarning ahamiyati
94. Tarix fanining asosiy tarmoqlari va zamonaviy yo‘nalishlari rivojlanishining ilmiy ahamiyati
95. Tarixiy bilishda ijtimoiy va tabiiy fanlar metodlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda ilmiy qarashlar xilma-xilligining ahamiyati
96. Tarixiy bilishning asosiy tamoyillari va ularning regulyativ funktsiyalari
97. Tarixiy tadqiqotlarda ob’ektivlik va tarixiylik tamoyillarining o‘zaro bog‘liqligi
98. Tarixiy voqealarning sabab-oqibat aloqalarini aniqlashda dialektik usul va materialistik yondashuvning ahamiyati
99. Tarixiy manba va axborot tushunchalarining mohiyati hamda tarixiy bilish jarayonidagi o‘zaro bog‘liqligi
100. Tarixiy manbalardagi ochiq va yashirin axborotni aniqlash hamda ularni ilmiy tahlil qilish usullari
101. Tarixiy dalil tushunchasining mohiyati va tarixiy tadqiqotlardagi o‘rni
102. Tarixiy dalilning haqiqiyligini aniqlash va uni interpretatsiya qilishning ilmiy usullari
103. Tarixiy dalillarni tasniflash va tizimli o‘rganishda tarixiy voqelikka ta’sir etuvchi omillarning ahamiyati
104. Pozitivizm, neokantchilik va tarixni materialistik tushunish yondashuvlarining asosiy xususiyatlari
105. Strukturalizm, poststrukturalizm va postmodernizmning tarixiy manbalarni tahlil qilish hamda tarixiy haqiqatni talqin etishga ta’siri

106. Tarixiy va mantiqiy usullarning mohiyati hamda tarixiy jarayonlarni o‘rganishdagi o‘zaro bog‘liqligi
107. Induktsiya, deduktsiya, tahlil va sintez usullarining tarixiy tadqiqotlarda qo‘llanilish xususiyatlari
108. Tizimli yondashuv va matematik modellashtirishning tarixiy jarayonlarni tahlil qilishdagi imkoniyatlari
109. Sinxron, diaxron va xronologik usullarning tarixiy voqea va jarayonlarni tahlil qilishdagi ahamiyati
110. Tarixiy taqqoslash, tipologik va tizimli usullarning ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanilish imkoniyatlari
111. Tarixiy tadqiqotlarda matematik usullarni qo‘llashning ilmiy ahamiyati va imkoniyatlari
112. Ommaviy tarixiy jarayonlarda qonuniyat va tendentsiyalarni aniqlashda matematik modellashtirishning o‘rni
113. Tarixiy tadqiqotlarda imitatsion va ko‘rsatmali-o‘rganish modellarining xususiyatlari hamda qo‘llanilish imkoniyatlari
114. Tarix fanining ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar bilan o‘zaro aloqalarining ilmiy ahamiyati
115. Sinergetika va tartibsizlik nazariyasining tarixiy jarayonlarni o‘rganishdagi ahamiyati hamda metodologik imkoniyatlari
116. Tarixiy informatikaning shakllanishi va rivojlanishi hamda tarixiy tadqiqotlardagi ahamiyati
117. Ma’lumotlar bazasi, elektron kataloglar va internet resurslaridan tarixiy manbalarni izlash hamda tahlil qilishda foydalanish imkoniyatlari
118. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tarix fani va tarix ta’limi rivojiga ta’siri va imkoniyatlari
119. Tarixiy tadqiqot mavzusini tanlash, muammoni belgilash va uning dolzarbligini asoslashning ilmiy-metodologik talablari
120. Tarixiy kontseptsiyani shakllantirish, tadqiqot natijalarini tekshirish va ilmiy xulosalarning asosliligini ta’minlash tamoyillari

VI. IMTIHON TOPSHIRIQLARINI BAJARISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Talabgor:

1. Ixtisoslikning nazariy va metodologik asoslarini ilmiy jihatdan izohlashi.
2. Asosiy tushuncha va kategoriyalarni to‘g‘ri qo‘llashi.
3. Tarix ta’limi metodikasining nazariy muammolarini tahlil qilishi.
4. Tarix ta’limining umumiy va xususiy metodikasini o‘zaro bog‘liq holda yoritishi.
5. Ilmiy fikrlarini dalillar va ilmiy manbalar asosida bayon qilishi.
6. Tarix ta’limi bo‘yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishi.
7. Nazariy bilimlarni amaliy-metodik vaziyatlarga tatbiq eta olishi.
8. Ilmiy tadqiqot metodlarini to‘g‘ri tanlashi va qo‘llash yo‘llarini tushuntirishi.
9. Mustaqil ilmiy xulosalar chiqarishi.
10. Ilmiy terminologiyadan to‘g‘ri va izchil foydalanishi lozim.

VII. MALAKAVIY IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONLARI

Malakaviy imtihon talabgorning nazariy bilimlari, metodik kompetensiyalari, ilmiy tahlil qilish qobiliyati va mustaqil fikrlash darajasini baholash asosida tashkil etiladi.

7.1. Baholash mezonlari

№	Baholash mezoni	Maksimal ball
	Nazariy bilimlar va ixtisoslikning metodologik asoslarini bilishi	25
	Tarix ta’limining umumiy va xususiy metodikasini bilishi	25
	Ilmiy tahlil va mustaqil fikrlash qobiliyati	20
	Ilmiy tadqiqot metodologiyasini o‘zlashtirganlik darajasi	20
	Ilmiy bayon va terminologiyadan foydalanish darajasi	10
	Jami	**100**

7.2. Tavsiya etiladigan baholash darajalari

- 90–100 ball – a’lo;
- 71–89 ball – yaxshi;
- 60–70 ball – qoniqarli;
- 0–59 ball – qoniqarsiz.

VIII. TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

8.1. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637, 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim va ilmiy faoliyatga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining ilmiy darajalar berish va malakaviy imtihonlarni tashkil etishga oid amaldagi nizomlari.

4. O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va tarix fanidan amaldagi o‘quv dasturlari.

5. Tarix fanidan umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun amaldagi darsliklar.

8.2. Rahbariy adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. - 56 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-48 б

3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 104 б.

5. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, - Т.: Ўзбекистон, 2018.

6. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон булади. - Т.: Ўзбекистон, 2019.

7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 464 бет.

8.3. Tarix fani metodologiyasi bo‘yicha asosiy adabiyotlar

1. Ilhomov Z.A. Tarix fani nazariy asoslari. Toshkent. “Navro‘z”. 2020.

2. Alimova D, Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi (o‘quv qo‘llanma). - T.: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati, 2018.

3. Ilhomov Z.A. Tarix fani nazariy asoslari. Toshkent. “Bookmany print”. 2025.

4. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. - Тошкент, Маънавият, 2009

5. Алимова Д., Илҳомов З. Тарих фани методологияси (дарслик). - Т.: Наврўз, 2019.

6. Илҳомов З.А. Тарих фани методологияси (тадқиқот услублари ва терминларининг изоҳли луғати). – Тошкент: ТДПУ, 2013.

7. Илҳомов З.А. Тарих фани методологияси (тарихий билиш, тарихий онг ва тарихий хотира). - Т.: ТДПУ, 2015.

8. Илҳомов З. Абу Райҳон Беруни ва тарих фанида тадқиқот услубларининг назарий масалалари. Тарих, таълим ва хотира. Илмий мақолалар тўплами. - Т.: ТДПУ, 2015. 151-155 б.

9. Ражабов Р ва бошқ. Тарих фани методологияси (дарслик). Тошкент, “Янги аср авлоди”. 2018.

10. Ражабов Р. Тарих фанининг методологик асослари. - Тошкент, Истиқлол, 2013.

8.4. Tarixiy tadqiqotlarning dolzarb masalalari bo‘yicha adabiyotlar

1. С. Шадманова, М. Юлдашев. Тарихий тадқиқотларнинг методологияси ва замонавий усуллари. Т.Ўзбекистон. 2019. 324б.

2. Ganieva M., Fayzullayev D. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash pedagogik texnologiyalar to‘plami.- Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.– 44 b.

3. Ganieva M., Fayzullayev D., Ne’matov I. Maqsadni belgilash va uch darajali testlarni ishlab chiqishning pedagogik texnologiyalari to‘plami. Metodik qo‘llanma.- Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.– 95 b.

4. Ganieva M., Fayzullayev D., Ne’matov I. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalari to‘plami- Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.
5. Ganieva M., Fayzullayev D. Zamonaviy o‘qitish vositalarining pedagogik texnologiyalari to‘plami.- Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.– 95 b.
6. Golish L.V., Xashimova D.P. Ta’lim jarayonida interfaol ta’lim uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent: TDIU, Iqtisodiyot, 2013.
7. Mansurov U. Tarix darslarida mustaqil ta’limni tashkil etish T., 2019.
8. Egambrerdieva N. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanish.- T.: 2011.

Tarix o‘qitish metodikasi bo‘yicha adabiyotlar

1. Mansurov U. Tarix o‘qitish metodikasi. (Darslik). T., “Ilm ziyo zakovat”,2023.
2. G‘afforov Y.X. Tarix o‘qitish metodikasi. (Darslik). T., Ishonchli hamkor, 2021. 276 b.
3. Mansurov U., Raxmatullayeva A. Tarix o‘qitish metodikasi. T., 2019.
4. Nafasov A.K. Tarix fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. T., “Olam” nashriyoti. 2011.
5. John Robert Seleen “Methods of Teaching of History” Ulan Press England,2011.
6. Bhuvan Garg. Teaching of History. India. New Delhi. 2007.
7. Қодиров Б. Таълим тизимидаги ислоҳотларнинг мақсад ва йўналишлари.Т. “Ўзбекистон”. 1999.
8. Лернер И.Я. Ўқитиш методларининг дидактик асослари.М.,1991
9. Mansurov U. Tarix o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi. T.,2019
10. Ro‘ziyeva D. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. T., 2014.
11. Sagdiyev A., Fuzailova G., Xasanova M. Tarix o‘qitish metodikasi. T., 2008
12. Студенткин М.Т. Методика преподования истории в школе. М., 2000.